



AUTIZMGA EGA BO'LGAN BOLALARNING NUQSONLARINI BARTARAF ETISH BO'YICHA PEDAGOGIK TAVSIYALAR

Usmanova Nilufar Ilhom qizi

Alfraganus Universiteti Maxsus pedagogika:

Logopediya yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15852222>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-Iyul 2025 yil

Ma'qullandi: 07-Iyul 2025 yil

Nashr qilindi: 10-Iyul 2025 yil

KEYWORDS

autizm, pedagogik tavsiyalar,
logopediya, defektologiya,
koreksion-ta'lim, individual
yondashuv, psixologik yordam,
jamiyatga moslashuv,
tashxis, ijtimoiy integratsiya

ABSTRACT

Mazkur maqolada autizm spektridagi buzilishlarga ega bo'lgan bolalarni to'g'ri tashxislash va ular bilan samarali pedagogik ish olib borishning zamonaviy yondashuvlari bayon etilgan. O.N. Nikolskayaning autizmli bolalarni to'rt guruhga ajratish asosida tuzilgan tavsiyalar koreksion-ta'lim dasturlarini individuallashtirishda asosiy vosita sifatida ko'riladi. Shuningdek, logoped va mutaxassislar uchun autizm bilan ishlashda zarur bo'lgan nazariy va amaliy tayyorgarlik yo'nalishlari hamda pedagogik strategiyalarning ahamiyati yoritilgan. Jamoatchilikni autizm masalasida xabardor qilish zaruriyati va O'zbekiston sharoitida ushbu muammoning dolzarbligi ham tahlil qilingan.

Autizm muammolarning murakkabligi va psixik (ruhiy) rivojlanish buzilishining darajalarini inobatga olgan holda, O.N. Nikol'skaya autik bolalarni to'rtta guruhga ajratgan. Koreksion ta'limni tashkil etishda ushbu tasnif individual dastur tuzishga imkon beradi:

1. Bolalarda nutqning yo'qligi va ularga qaratilgan nutqqa nisbatan befarqligi hamda kommunikativ faoliyatning noverbballigi;

2. Bolalarda nutqning sodda shaklda va qisman mavjudligi, lekin bolaning muloqotga kira olmasligi;

3. Bolalar atrofdagilar bilan muloqotdan qochishi, hatto imo-ishorali muloqot turigaega emasligi, o'zgaruvchan sharoitga yomon moslashishi. Bu holat bolaning ota-onasi va logoped bilan muloqotga kirishishida qiyinchiliklar tug'diradi.

4. Bolalarda psixik, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishida sustlashishlar va diqqatni jamlashdagi muammolar kuzatilib, bu ijtimoiy moslashmaganlikda namoyon bo'ladi.

Bolalarni guruhlarga bunday ajratish ularga logopedik tashxis qo'yishda asosiy belgilaridan hisoblanadi. Shunday qilib, autik bolalar turlarining bir xil emasligi, rivojlanishidagi buzilishning murakkabligi sababli bolaning dasturga o'zlashtirish qobiliyatiga individual, differentsial yondashuv talab etiladi.

Autizmli bola bilan ishlovchi logoped, defektologlar uchun tavsiyalar: Mutaxassislar malaka oshirish kurslarida maxsus "Autizm" kursini o'qishlari lozim. Ta'lim va tayyorlov o'z ichida besh asosiy sohani qamrab oladi.

Birinchi soha: autizmga oid nazariy bilimlar, diagnostika va belgilab olish.

Ikkinchi soha: autizmga ega bo'lgan mijozni tashxis qilish.

Uchinchi soha: autizmga nisbatan atrof-muhitning moslashtirilishini qamrab oladi.

To'rtinchi soha: funkcionallik. Autizmga ega bo'lgan insonlar qanday funksional ko'nikmalarga o'rgatilgan bo'lsa, shularnigina o'zlashtira oladi.

Beshinchi soha: "o'qitish va ta'lim usullari qanday tarzda autizmli bolaga moslashtirilishi lozim" degan savolga taalluqli.

Maxsus ta'lim dastlab ko'zi ojiz va zaif eshituvchilar uchun ishlab chiqilgan edi. Autizmga ega bo'lgan bolalar uchun shunga o'xshash tizimning ishlab chiqilishi va qo'llanilishi ehtimol, eng muhim vazifadir, chunki hech kim bunga an'anaviy maxsus ta'lim orqali tayyorlanmagan. Pedagogik strategiyaning asosini individual yondashuv tashkil etishi lozim. Har bir bolada saqlangan psixomotor funksiyalarni, uning shaxsiyati va rivojlanishining ijobiy tomonlarini izlab topishga intilish pedagogik optimizm asosida pedagogik taxmini belgilashning muhim shartidir.

Jamoatchilikning autizm haqidagi xabardorligini oshirish bilan bog'liq targ'ibot ishini yo'lga qo'yish ham juda muhimdir. Hayotimizda shunday holatlarga ham duch kelamizki, ba'zi ota-onalar "noodatyi" tarzda ulg'ayayotgan farzandlaridan uyaladilar, chunki jamoatchilikning o'zi ularni to'g'ri qabul qilmaydi. Bu umuman noto'g'ri! Muammo shundaki, o'z farzandlarini boshqa tengdosh bolalarga o'xshamasligini payqagan ota-onalar bezovta bo'lib, ularni "berkitish"ga urinadilar, natijada esa o'zlari ham jamiyatdan ajralib qoladilar. Taasuf bilan ta'kidlash joizki, O'zbekistonda ham mazkur muammo bir muncha dolzarbdir. Bugungi kunda autizmga tashxis qo'yish va uni davolash tizimi Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazida ilmiy-metodik va amaliy jihatdan rivojlanib kelmoqda. Buning murakkabligi shundaki, autizm hodisasi turli ixtisosliklarning o'zaro hamjihatligini talab etadi. Autizm kasalligi bilan og'rikan bolalarning abilitatsiyasi hamda integratsiyasi – bu bir qancha chora-tadbirlar majmuasidan iborat bo'lib, ko'proq ijtimoiy hamkorlik o'rnatilishi, ya'ni turli soha mutaxassislarining jalb qilinishi talab etiladi. Bu muammoga pediatr, tor ixtisoslikdagi tibbiyot xodimlari, logoped, psixolog hamda defektologlarning o'zaro hammaslahatligida yondashish deganidir. G'arbning rivojlangan mamlakatlarida autizm kasalligi bilan og'rikan insonlarning ta'limi, tarbiyasi hamda moslashuvi muammosiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Ko'pincha xorijlik mutaxassislarning muammoga yondashuvi har bir insonning, shubhasiz, o'zicha takrorlanmas va noyob shaxs ekanligini tan olish zaruriyatiga asoslanadi. Shu sababli e'tiborni kamchiliklarni tuzatishga emas, balki insonlar uchun alohida, ularning o'zligini saqlab qolgan holda erkin yashay olishi uchun sharoit yaratishga qaratish taklif qilinadi. Bu maqsadda psixologik-pedagogik korreksion texnologiyalar majmuasini ishlab chiqib, mutaxassislarni samaradorligi ilmiy nuqtai nazardan tasdiqlangan metodikalardan foydalanishga o'rgatish zarurdir. Ushbu jarayonda chet el tajribasini inobatga olish juda muhimdir.

Xulosa: Autizmli bolalar bilan ishlashda muvaffaqiyatli ta'lim va tarbiya samarasi individual yondashuv, kompleks psixologik-pedagogik texnologiyalarni joriy etish va jamoatchilikni xabardor qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Mutaxassislarning tayyorgarlik darajasi, tashxis qo'yish aniqligi va oilaviy hamkorlik orqali bolalarning ijtimoiy integratsiyasiga erishish imkoniyati ortadi. Shu boisdan, ilmiy asoslangan, tizimli yondashuvni qo'llash autizmli bolalarning hayot sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Муминова Л.Р. - АУТИЗМ САБАБЛАРИ, ТУРЛАРИ ВА БАРТАРАФ ЭТИШ МЕТОДИКАЛАРИ - услубий кулланма - Тошкент 2015
2. Актуальные проблемы диагностики задержки психического развития детей. - Москва: Педагогика, 1991.
3. Актуальные проблемы нейропсихологии детского возраста. Учебное пособие. / Под. ред. Л.С. Цветковой. - Москва: Издательство НПО «МОДЭК», 2001.
4. Атлас для экспериментальных исследований отклонений в психической деятельности человека. / Под. ред. проф. Полищука Н.А. и доц. Видренко А.Е. 1980.
5. Блейхер В.М., Крук И.В., Боков С.Н. Практическая патопсихология. Руководство для врачей и медицинских психологов. - Ростов-на-Дону: Феникс, 1996.
6. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика. -М.: Речь, 2000.
7. Бурлачук Л.Ф., Морозов С.М. Словарь-справочник по психологической диагностике. - СПб.: Питер, 2004.
8. Бурлачук Л. Психодиагностика - СПб.: Питер, 2002.
9. Возрастно-психологическое консультирование. Проблемы психического развития детей. - М.: Издательство МГУ, 1990.
10. Возрастно-психологический подход в консультировании детей и подростков. / Под. ред. Г.В. Бурменская, Е.И. Захарова. - М.: Академия, 2002.
11. Выготский Л.С. Проблемы развития психики. - Москва: Педагогика, 1983.
12. Забрамная С.Д. Наглядный материал для психолого-педагогического обследования детей в медико-психологических комиссиях. - Киев. Радянська школа, 1988.
13. Кравцова Е.Е. Психологические проблемы готовности детей к обучению в школе. - Москва: Педагогика, 1991.
14. Лаак Я. Психодиагностика: проблемы содержания и методов. - Москва: Институт практической психологии, 1996.
15. Мамайчук И.И. Психологическая помощь детям с проблемами в развитии. - СПб.: Речь, 2001.
16. Никольская О.Н., Баенская Е.Р., Либлинг М.М. Аутичный ребёнок: пути помощи. - М.: Теревинф, 2000.
17. Новые исследования в психологии и возрастной физиологии. — Москва: Педагогика, 1982.
18. Ньюкомб Нора. Развитие личности ребенка. - СПб.: Питер, 2003.
19. Основы специальной психологии. Учебное пособие. / Под. ред. Л.В. Кузнецовой. - Москва: Академия, 2002.
20. Поваляева М.А. Коррекционная педагогика. Взаимодействие специалистов. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2002.
21. Практикум по патопсихологии. / Под. редакцией Зейгарник Б.В. — Москва: Издательство МГУ, 1987.